

SOLIQ VA SOLIQ TURLARINING IQTISODIY FUNKSIYALARI VA UNING MOHIYATI



Yusupov Bekzod Ulug'bekovich

Fan va texnologiyalar
universiteti o'qituvchi (+998 90
900-50-12)

Mahmudov Jamshed Ashrafovich

Fan va texnologiyalari universiteti o'qituvchi
(+998 33 344-97-61)

Annotatsiya : Ushbu maqola "Soliq va soliq turlarining iqtisodiy funksiyalari va uning mohiyati" mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, soliq tizimining iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini ko'rib chiqadi. Soliq, davlatning moliyaviy resurslarini shakllantirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Maqlada soliqning asosiy turlari, ularning iqtisodiy funksiyalari, masalan, davlat byudjetini to'ldirish, iqtisodiy faoliyatni tartibga solish va ijtimoiy adolatni ta'minlash kabi jihatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, soliq tizimining samaradorligini oshirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun zarur bo'lgan omillar ham ko'rib chiqiladi. Ushbu tadqiqot, soliq siyosatini shakllantirishda va iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ma'lumotlar taqdim etadi.

Kalit so'zlar : soliq, soliq tizimi, soliq funksiyalari, davlat byudjeti, soliq siyosati.

Abstract : This article is devoted to the topic "Economic functions of taxes and types of taxes and their essence" and considers the role and importance of the tax system in the economy. Taxes are an important tool in the formation of the state's financial resources and ensuring socio-economic development. The article analyzes the main types of taxes, their economic functions, such as replenishing the state budget, regulating economic activity and ensuring social justice. It also considers the factors necessary to increase the efficiency of the tax system and stimulate economic growth.

This study provides important information in the formation of tax policy and the development of economic development strategies.

Key words : tax, tax system, tax functions, state budget, tax policy.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliqlar davlat tomonidan milliy daromadni qayta taqsimlash va uning asosiy funksiyalarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan davlat byudjeti daromadlarining asosiy man-bayı bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, soliqlar yordamida davlat umumiylarini oshirish uchun aholining turli guruhlari o‘rtasida daromadlar tengsizligini bartaraf eta oladi Bozor munosabatlarining rivojlanib borishi xususiy tadbirkorlik faoliyatining daromadini hisobini yuritish masalalarini qiyinlashtiradi. Chunki xususiy lashtirilgan bitta korxona o‘rnida o‘nlab kichik, xususiy va jamoa mulkiga asoslangan korxonalar paydo bo‘ladi. Mamlakatda mukammal soliq tizimi yaratilmaganligi sababli daromadlar summasini aniqlashda jiddiy xatoliklar yuzaga kelishi mumkin.

Mamlakatning iqtisodiy rivojla-nishidagi soliq siyosatini baholash ancha murakkab masala hisoblanadi. Soliqlar iqtisodiy o‘sish va rivojlanish barqarorligi, iqtisodiyotdagi tarkibiy siljishlar, pirovardida, aholining hayot sifati va farovonligi darajasiga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Ma’lumki soliq tushunchasi mohiyati nafaqat iqtisodiy balki moliyaviy, ijtimoiy sohalarga ham aloqador bo‘lgan kategoriya sifatida namoyon bo‘lib, muayyan bir davlatning paydo bo‘lishi, uning faoliyatining davo-miyligi bilan ham bevosita bog‘liq hisoblanadi.

Soliq va soliq tizimining vujudga kelishi insoniyat tarixida o‘z o‘rni va rivojlanish xususiyatlarga ega. Tarixan soliqlar, davlatni saqlab turish uchun zarur bo‘lgan majburiy to‘lovlar sifatida, davlat paydo bo‘lishi bilan vujudga kelgan bo‘lsa, tovar-pul munosabatlari rivojlanish bilan soliqlar pul shakliga o‘tgan. Bozor munosabatlari sharoitida, ayniqsa bozor munosabatlariga o‘tish davrida soliqlar davlat iqtisodiyotini tartibga soluvchi muhim bir dastak sifatida namoyon bo‘lgan.

Soliqlar davlat vujudga kelgandan boshlab jami-yatdagil iqtisodiy munosabatlarning zaruriy bo‘g‘ini hisoblanadi. Boshqaruva shakllarining rivojlanishi

va o‘zga-rishi doimo soliq tizimining o‘zgarishi bilan birga keladi. Soliqlar o‘tmishda ham, bugungi kunda ham jamiyatning barcha ijtimoiy- iqtisodiy sohalarini qamrab olgan. Hech bir davlat jamiyatning siyosiy tashkiloti sifatida soliq tushumlarisiz ishlamaydi. Soliqlar ijtimoiy kategoriya bo‘lib, odamlar va davlat hayotining o‘ziga xos tarixiy va iqtisodiy sharoitlarini aks ettiradi.

Soliqlarning iqtisodiy mohiyati davlat bilan yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasida rivojlanadigan pul munosabatlari bilan tavsiflanadi. Bu pul munosabatlari obyektiv shartli bo‘lib, o‘ziga xos ijtimoiy maqsadni - davlat ixtiyoridagi pul mablag‘larini to‘g‘ri yo‘naltirishni ko‘zda tutadi. Shuning uchun soliqni o‘ziga xos funksiyalari bilan iqtisodiy kategoriya sifatida qarash mumkin.

Soliqlar xo‘jalik yurituvchi subyektlar va mamlakat fuqarolari bilan davlat o‘rtasida yangidan yaratilganmablag‘ yoxud qiymatni qayta taqsimlash uchun asosiy omil hisoblanadi. Hech qaysi bir jamiyat yoki davlatni soliq tizimisiz tasavvur qila olmaymiz. Sababi soliqlar nafaqat mamlakat byudjet mablag‘larini tashkil etish uchun asosiy vositachi, balki mamlakatda mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish, ishlab chiqarishni rag‘batlanti-rish, investitsiyalarni keng jalb qilish, raqobatbardosh mahsulotlarni ko‘paytirish, kichik biznesni rivojlantirishga, ko‘plab yangi xususiy korxonalar ochish bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bozor infratuzilmasini yaratish uchun ham samarali xizmat qiladi. Soliqlarning iqtisodiy mazmuni davlat, yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasida yuzaga keluvchi moliyaviy munosabatlar orqali tavsiflanib, majburiy to‘lov larga asoslangan. O‘z navbatida moliyaviy munosabatlar ham maxsus

ijtimoiy xususiyat-xarakterga ega bo‘lib, mamlakatda milliy ichki daromadning bir qismi hisoblangan pul mablag‘larini davlat byudjetiga yo‘naltirishga xizmat qiladi

Soliqlarning bajaradigan funksiyalari orqali ham uning mazmun-mohiyati yuzaga keladi. Chunki har bir kategoriyaning xoh u iqtisodiy-ijtimoiy, xoh siyosiy kategoriya bo‘lsin, o‘zining ma’lum bir bajaradigan funksiyasi mavjud bo‘lib, soliqlar ham o‘z funksiyalari orqali amaldagi harakatini ifoda etadi. Soliqlarning funksiyasi haqida fanda turlicha fikr va qarashlar mavjud.

Jumladan soliqlar asosan ikki xil funksiyani bajaradi, degan qarash Sobiq Ittifoq davrida keng ommalashgan. Bu ikki asosiy funksiya sifatida soliqning fiskal va nazorat funksiyalarini tan olishgan. Soliqlarning asosiy funksiyasi bu uning fiskal funksiyasidir, sababi bu funksiya soliqning nazorat funksiyasiz mavjud bo‘lishi mumkin emas, deb hisoblanardi. Soliqlarning funksiyalari masalasi to‘g‘risida

hozirga qadar turli iqtisodiy yo‘nalish vakillari, iqtisodchi olimlar o‘rtasida turli Iqtisod-chilarning ko‘pchilik soliqlar uchun, fiskal, nazorat, boshqaruvchi va rag‘batlantiruvchi funksiyalar xos ekanligini ta’kidlashadi. Shunga ko‘ra soliqlarning asosiy funksiyalari sifatida quyidagi funksiyalarning ko‘rsatish mumkin:

Soliqning fiskal funksiyasi: Bu funksiya soliqlarning asosiy funksiyasi hisoblanib, mamlakatda noishlab chiqarish sohalarini saqlab turish maqsadida undirib olish orqali davlat byudjetining daromadini shakllantirish – mazkur funksiyaning asosiy elementi hisoblanadi.

Tartibga solish funksiyasi: Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliqlarning ikkinchi yana bir muhim funksiyalaridan biri tartibga solish funksiyasidir. Mamlakat iqtisodiyotini tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etgan.Bu funksiya orqali davlat soliqlar bilan tovar, xizmatlar ishlab chiqarish va sotishning shart-sharoitlarini tartibga soladi, ya’ni ishlab chiqarish uchun qulay muhit yaratib beradi. Ushbu funksiya orqali davlat ishlab chiqarishning ma’lum darajada rag‘batlantirishi yoki jilovlab turishi mumkin.

Rag‘batlantirish funksiyasi: Soliqlarning yana bir funksiyasi rag‘batlantiruvchi funksiyasi hisoblanib, bu funksiya orqali iqtisodiyotda ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moliyaviy va mehnat resurslari shuningdek jamg‘arilgan mol mulklaridan samarali foydalanishni rag‘batlantiruvchi omil hisoblanadi. Soliqlarning rag‘batlan-tiruvchi funksiyasi orqali davlat o‘z iqtisodiyoti taraqqiyotini ta’minlab beradi, bu esa fiskal funksiyasini bajarishi uchun muhim bazani kengaytiradi.

Nazorat funksiyasi: Soliqlarning nazorat funksiyasi mamlakatda soliq to‘lovchining soliq imtiyoz yoki majburiyatlaridan samarali foydalanishi,

shuningdek, soliqqa tortish obyekti, soliqqa tortiladigan baza va boshqa soliq ko'rsatkichlarini hisob kitob-qilish va uni nazorat qilish jarayonidan iborat.

Soliqlarni hisoblash: jarayonini axborot bilan ta'minlash funksiyasi.

Soliqlarning mazkur funksiyasi soliq tizimida muhim ahamiyat kasb etib, bu funksiya orqali xarajatlar hajmi soliqli tushumlar davlatning qanday ijti-moiy-iqtisodiy islohotlar uchun sarflanayotganligi to'g'risida aniq va shaffof axborot berishdan iborat. Soliq siyosatini ishlab shiqish va uni amalyotda qo'llash jarayonida bir qancha o'z vakolati doirasida faoliyat yuritadigan organlar birgalikda bahamjihat ishni tashkil etishlari shart.

Bu organlar faoliyat turining turlichaligi, ularni tashkil etish asoslarining farqlanishi, maqsad va vazifalarining ayrichaligi soliq munosabatlarini tashkil etishda ayrim muammolarni keltirib shiqaradi. Bu jarayonda aktiv ishtirok etishni ta'minlash maqsadida ular faoliyatini muvofiqlashtirish va bir-biriga moslushuvshanligini ta'minlash kabi qator muammolarni hal etish zarur. Shuni alohida qayd etish lozimki, asosiy iqtisodiy huquqlar va soliq to'lovchilarning erkinligini ta'minlash qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatning doimiy nazorati ostida turadi. Prezident tomonidan ularning faoliyatiga nisbatan bildiriladigan asosiy talablar bevosita soliq sohasidagi ishlarning umumiyligi ahvoli, uni bosh-qarish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va boshqalar bilan belgilanadi.

Davlat soliq qo'mitasiva boshqa soliqlar bo'yisha bevosita va bilvosita vakolatgaega bo'lgan organlar ishini muvofiqlashtirgan holda hokimiyatning ushbu sohalari soliq solish bilan bog'liq shaxs huquqlarini ta'minlash ushun yuqori darajali javobgarlikni o'z zimmasigaoladi hamda ularning manfaatlari yo'lida muammoli vazi-yatlarni oldini olish maqsadidao'zaro hamkorlikning barcha jihatlarini mukammal tartibga soladi.

XULOSA

Maqolada ko'rsatilganidek, soliq va soliq turlari iqtisodiyotning muhim elementlaridan biridir. Ular davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy adolatni oshirish va iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda asosiy rol o'ynaydi. Soliq

tizimining samaradorligi, davlat byudjetining shakllanishi va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, soliq siyosati, iqtisodiy o'zgarishlarga mos ravishda yangilanib borishi kerak. Innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali soliq yig'ish jarayonini optimallashtirish, soliq to'lovchilar bilan munosabatlarni yaxshilash va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mumkin.

Natijada, soliq va soliq turlarining iqtisodiy funksiyalari, nafaqat davlatning moliyaviy resurslarini shakllantirishda, balki iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy farovonlikni oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, samarali soliq tizimi, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va jamiyatning farovonligini oshirishda muhim omil sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A. V. Vahobov, A.S. Jo'rayev; Soliqlar va soliqqa tortish:Toshkent Moliya in-ti, – T.: Sharq, 2009.– 448 b.
2. Olimjonov. O. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida soliq siyosati. "Hayot va iqtisod", 1992.
3. Dadashev A. Z. Iqtisodiy o'sishning innovatsion modelini shakllantirish sharoitida soliq siyosati. / Z. Dadashev // Moliya va kredit, 34 (322) – 2008. 322b.
4. Tax Policy. Handbook, Edited by Parhasarthi Shome, IMG‘, 2015.
Washington D.C
5. <https://upravlenets.usue.ru/en/component/content/article/18-49/151-2014-09-01-07-20-49.6. Taxation | Definition, Purpose, Importance, & Types | Britannica>